

AZIM SUYUN "QAYIRMA" LARINING JANRIY XUSUSIYATLARI

Dilorom Tosheva,

IV Buxoro akademik litseyi o`qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqillik davri badiiy adabiyotida vujudga kelgan badiiy shakllar, xususan, sohir ijodkor Azim Suyunning zamonaviy adabiyotdagi yangiligi, qayirma badiiy shakli tabiati, uning janriy xususiyatlari, o`ziga xos jihatlari haqida so`z borgan. Azim Suyun qalamiga mansub bir nechta she`riy va nasriy qayirmalar tahlil qilingan va qiyosiy o`rganilgan.

Kalit so`zlar: *nasriy she`r, qayirma, to`rtlik, ruboiy, hikmat, maqol, ijodkor individualligi, so`z mas`uliyati, undalma.*

ЖАНРОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА "ГАЙРМА" АЗИМА СУЮНА.

Дилором Тошева,

Преподаватель Бухарского академического лицея МВД

Аннотация: в данной статье говорится о художественных формах, появившихся в литературной литературе периода независимости, в частности о новаторстве поэта Азима Суйуна в современной литературе, о характере поэтической формы, ее жанровых особенностях, ее уникальных аспектах. . Проанализировано и сравнительно изучено несколько поэтических и прозаических стихотворений Азима Суйуна.

Ключевые слова: стихотворение в прозе, рифмовка, четверостишие, рубай, мудрость, пословица, индивидуальность творца, ответственность за слово, мотивация.

GENRE CHARACTERISTICS OF AZIM SUYUN'S "GAYRMA".

Dilorom Tosheva,

Teacher of MIA Bukhara Academic Lyceum

Annotation: this article talks about the artistic forms that appeared in the literary literature of the period of independence, in particular, the innovation of the poet Azim Suyun in modern literature, the nature of the poetic form, its genre

features, and its unique aspects. Several poetic and prose poems by Azim Suyun have been analyzed and comparatively studied.

Key words: prose poem, rhyme, quatrain, rubai, wisdom, proverb, creator's individuality, word responsibility, motivation.

Hozirgi kunda butun jahon she'riyatida bo'lgani kabi o'zbek poeziyasida ham hajmning kichrayish jarayoni bormoqda. Bu esa shoirlardan imkon qadar mo'jaz hajmda kattaroq ma'no yuklashni taqozo etadi. Poetik so'z mas'uliyatini yaxshi anglagan Azim Suyun ham bu kabi umumjahoniy hodisadan chetda qolmaydi. "She'riy shakl ustidagi izlanishlar natijasida u poetik ifodaning "Qayirma" deb atalmish qulay janrini kashf etdi".¹ Shoirning 2018-yil "Akademnashr" tomonidan nashrdan chiqarilgan "Ey do'st yoxud Azimona" kitobidagi ijod namunalarini muallif "qayirmalar" deb nomlaydi (Quyida qavs ichida beriladigan izohlar shu manbadan olingan). E'tiborli jihati esa Azim Suyun bu badiiy shaklning ham she'riy, ham nasriy namunalarini keltiradi.

"Qayirma" so'ziga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayriladigan, bukiladigan deya ta'rif berilgan.² Bundan tashqari, "qayish"lik, ya'ni pishiqlik, puxtalik kabi ma'nolarni ham anglatadi.

"Azim Suyunning qayirmalarini ko'pdan buyon kuzatib kelaman. Bu qayirmalar Sharq mumtoz she'riyati ummonidan "suv ichayotgani", ya'ni Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur kabi ulug' donishmandlarimiz asarlaridagi donolik, teranlik, ixchamlik, lo'ndalik kabi fazilatlarga eshligi, ayni paytda, eng qadimiy davrlarda tog'-toshlarga o'yib yozilgan bitiklardek aniqligi bilangina emas, balki shakldagi yangiligi bilan ham e'tiborga loyiqdir".³

Ey do'st!

Desangki sirimni bilmasin ag'yor,

Uni hatto do'stga qilmagil oshkor.

¹ Йўлдош Қ. Эй дўст ёхуд Азимнома. Тошкент, "Академнашр" 2018, Б.434.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2008. Б.212.

³ Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. Тошкент, "Академнашр" 2018, Б.3.

*Oqillar gapini qilmagan edim,
Juda ko`p pushmonlik eshagin mindim⁴.*

Pand-nasihati ruhida ushbu misralar mazmunidan maqolga xos umumlashma ma'no ifodalanganligini kuzatish mumkin. Ya'ni inson hayotda hammaga ham ishonib sirini aytavermasligi lozimligi, donolar gapiga kirmasligi oxir-oqibat pushaymonlikka sabab bo'lishini muallif chiroyli misralar bilan ko'rsatib bergan.

Diqqatga loyiq jihati shundaki, shoir 4 misradan iborat deyarli har bir to'rtlik boshida takrorlagan "Ey do'st!" tarzidagi undalma she'rni 5 misrali she'rga aylantiradi. "Ey do'st!" undalmasi shunchaki shakliy originallik maqsadida qo'llangan xitob emas, balki har bir she'rda aks etgan tuyg'uning zalvorini, fikrning salmog'ini oshirishga yo'naltirilgan poetik unsurdir".⁵ Bundan tashqari, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ham "Ey do'st!" undalmasiga to'xtalar ekan, u turli o'rinlarda turlicha ohang va ma'no kasb etganligini, bu undalma to'rtlikni ma'no va shakl jihatidan yangilaganligini, shu bilan birga, Sharqda ming yillardan beri o'zgartirib bo'lmaydiganday tuyulgan to'rtlikning yangicha ko'rinishi ekanligini ta'kidlab o'tgan edi⁶. She'riy misralarda qo'llangan undalmalar adabiyotshunoslikda nido san'atini yuzaga keltiradi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, "Ey do'st" undovidan faqat do'stni tushunmaslik kerak, ushbu undov umumiylikni ifodalashini tushunish lozim"⁷.

*Ey do'st!
Bo'y talashar daraxt-u nihol,
Yo'l talashar shabada, shamol.
Ko'rdim kimsalarni – ko'nglimda ozor –
Talashib axtarar yaxshiroq mozor.⁸*

⁴ Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. Тошкент, "Академнашр" 2018, Б.144.

⁵ Йўлдош Қ. Эй дўст ёхуд Азимнома. Тошкент, "Академнашр" 2018, Б.436.

⁶ Оripов А. "Қауimgа – mustaqil janr". "Tafakkur" jurnali, 2003-yil.

⁷ Mamiraliyev Q. O'zbek adabiyotida shakliy izlanishlar va individuallik. International scientific methodological journal Foreign Languages in Uzbekistan. 2022, 5-son.

⁸ Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. Тошкент, "Академнашр" 2018, Б.186

Ey do`st!

Dorivor bir giyoh zamzamdanda afzal,

Bir so`z shaffofligi shabnamdan afzal.

Shakkoklikka yo`yma ushbu so`zimni:

Adolat kishisi otamdan afzal. (187)

Darhaqiqat, qayirmalarni o`qir ekansiz, “Ey do`st!” undalmasi ayrim o`rinlarda zavqni, ba`zan afsusni, ba`zida alamni, gohida Yaratganga murojaati, goho do`stga nasihati va chorlovi, goh esa da`vatni anglatganligining guvohi bo`lasiz. Yuqoridagi to`rtliklar ham pand-nasihati ma`nosida yozilgan bo`lib, birinchi she`rda insonlar oxiratni esdan chiqarib, bu duyoning hoy-u havaslari ortidan yugurayotganlarini qoralasa, ikkinchi she`rda har qanday holatda ham inson adolatparvar bo`lishi lozimligi haqidagi g`oya ilgari surilgan.

Ey do`st!

Hadis: “O`lmasdan burun o`ling”.

Yig`lamay yig`lang tun-kun o`ling.

Chala umr kechirmoq nojoizdir, Azimo,

Chala o`lmasdan butun o`ling. (211)

“U qayirmaning torgina maydonida juda erkin harakat qilib, sezimlarning rang-barang holatini jilolantira biladi”⁹ – deb yozgan pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo`ldoshev uning qayirmalari haqida fikr yuritir ekan. A.Suyunning ushbu to`rtligi kuchli falsafiy mushohadaga boyligi bilan ajralib turadi. Ijodkorning bu mavzudagi qayirmalari Rumiylarning ijodini esga soladi va qayirmalarning mavzu hamda mazmuman rang-barangligini ko`rsatib turadi.

Ey do`st!

O`ynaganlar o`ynasin yarashsa davroniga,

Hayot hamisha sober, anglaganga u jannat.

Nopok oyoq qo`ymasin ka`basi – iymoniga,

Yig`laganlar yig`lasin el dardi birla faqat. (211)

⁹ Йўлдош Қ. Эй дўст ёхуд Азимнома. Тошкент, “Академнашр” 2018, Б.438

Azim Suyun “qayirma” deb nomlagan ushbu badiiy shakl mazmunan ruboiy va to`rtlik kabi janrlarga o`xshab ketadi. Chunki bu badiiy shakl ham o`zining falsafiyliigi va didaktik ma`no tashishi bilan yuqoridagi janrlarga hamohanglik qiladi. Faqat shakliy alohidalik ushbu badiiy shaklni ruboiy va to`rtlikdan ajratib turibdi.

Azim Suyun yu qorida aytganimizdek, qayirmaning ham she`riy, ham nasriy namunalarini yaratdi. Muallifning nasriy qayirmalari she`rdan farq qilsa-da, unda shoirona ruh yetakchilik qiladi. Azim Suyunning nasriy qayirmalarida fikr va tuyg`uni qolipdan xalos etadi, uni o`z erkiga qo`yib berish yo`lidan boradi. Bu juhatdan ayrim qayirmalar hikmatlarga o`xshab ketadi.

Dunyoda dono-yu donishmandlar aytmagan, bitmagan hikmat qolmagan. Faqat mag`zi chaqilmagani ko`p. (278)

Ota-bobolarning hayotiy bilimi va tajribasi – tun zulmatidagi chiroq, - deb yozganida haq edi shoir. Ushbu qayirmada, haqiqatan, ota-bobolarimizning hayotiy tajribalari biz uchun ulkan tarbiya maktabi ekanligi uqtirlmoqda. (306)

Azim Suyunning ushbu nasriy qayirmalari shaklan O`Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar”iga, A.Muxtorning “Tundaliklar”iga, adabiyotshunos olim va zamonaviy ijodkor N.Rahimjonovning “Dilbitiklar”iga o`xshab ketsa, muallifning hayotiy muammolarga ayri-ayri yondashishi va fikrni original taqdim etishi bilan ulardan farq qiladi. Eng muhimi, muallif ushbu nasriy yozishmalarini ham qayirma deb ataganidadir.

Vatan kamoli uchun amaliy faoliyat vatanparvarlikdir. (278)

Eng buyuk jasorat Vatan taqdiri yo`lida qilingan jasoratdir. (279)

Vatan haqida yozmagan, uni madh etmagan ijodkor yo`q, aslida. Dildan chiqqan so`zlargina kitobxon qalbiga yetib boradi. Vatanparvarlik g`oyalari bilan yo`g`rilgan mazkur qayirmalar hech bir insonga ta`sir etmay qo`ymaydi: insonni Vatanga nisbatan daxldor bo`lishga chorlaydi. Unga bo`lgan muhabbatimizni amaliy ishlarimiz bilan ko`rsatishimiz lozimligini uqtiradi.

A.Suyun nasriy qayirmalarini qismlarga bo`lib, 7 ta deraza nomi ostida beradi. Qayirmalar hajimga ko`ra farqlanadi, ya`ni derazalar o`zgarib borgani sari

qayirmalarning hajmi ham kengayib boraveradi. Muallif nasriy qayirmalarini 7 ta deraza nomi ostida berishida ham qandaydir falsafiy ma'noni yashirganligi ayni haqiqat.

Soʻzdan ... harakatga oʻt. Umr mazmunini, insonning jamiyatdagi oʻrnini uning faol harakati belgilaydi. (285) - Ushbu qayirma bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan zamonda faqat gapirish emas, amaliy harakat muhim ekanligi, inson jamiyatda gapirgan gaplaridan koʻra amallari bilan oʻrin egallashi mumkinligi aytib oʻtilgan. Azim Suyun nasriy qayirmalari ham turli mavzularda yozilgani bilan ajralib turadi. Ayrim nasriy qayirmalari hikmat mazmunida boʻlsa, baʼzilari zamonaviy mavzuda yozilgani bilan farqlanadi. Ijodkor ayrim nasriy qayirmalari bilan kimgadir nasihat qilmoqchi boʻlsa, baʼzilari bilan oʻz hayotiy xulosalarini oʻrtoqlashadi.

Buyuk shaxmatchilar shaxmat taxtasi oldida tap tortmay buyuk qurbonliklar qiladilar. Nega? Ular hech kim fahmlamagan, tafakkuri sezimlari yetmagan buyuk gʻalabani aniq-tiniq koʻrib turadilar. Kerakli joyda va oʻz paytida qilingan qurbonlik – gʻalaba. (306)

Aql va tajriba – qushning ikki qanoti. Qanotlar sogʻlom, baquvvat boʻlsa, va ular juftlikda birdek erkin parvoz qilsa, har qanday qush ham, timsolimizdagi inson ham dogʻda qolmaydi. (337)

Quyida rivoyat xarakteridagi qayirma keltirilgan boʻlib, unda Xizr asosiy obraz hisolanadi. Bu qayirma bilan shoir hayotimizda hali ham Xizrsifat insonlar uchrab turishi, aslida bizga yaxshilikni tilab qoluvchi har qanday kishi Xizrtabiat kishi ekanligiga ishorani sezish mumkin.

Bir soʻz

Sahroda Xizr ketayotgan ekan, ikki choʻpon yoʻliqibdi. Xizr:

- *Bir soʻz aytaman, kim bir qoʻy beradi? – debdi.*
- *E, bir soʻzga ham bir qoʻymi? Men bermayman, - deb birinchi choʻpon qoʻylarini oʻy (chuqurlik-jarlik)ga haydab ketibdi.*

Ikkinchi choʻpon:

- *Men beraman, ayt, - debdi. Xizr:*

- *Uyda emas, qirda yot, - debdi.*

O`sha kuni tun bo`yi sharros yomg`ir yog`ibdi. Uyda yotgan birinchi cho`ponni butun suruvi bilan sel oqizib ketibdi. Qirda yotgan ikkinchi cho`pon o`z suruvi bilan omon qolibdi.(411)

“Azim Suyun bitganlarida xalq poeziyasining kuchli ta`siri bo`lgani holda, o`z ijodiy qiyofasini saqlab qola bilgan shoirdir. Chinakam folklor asarlari yaratilishi deyarli to`xtagan va zamondoshlar hayotiga xalq og`zaki ijodining ta`siri tobora kamayib borayotgan urbanizatsiya va globallashuv davrida Azim Suyun qayirmalari adabiyotimiz uchun muhim manba sanaladi”. (440)

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, qayirmalarni mustaqil janr sifatida ko`rsatishga asosimiz yo`q. Azim Suyunning qayirmalari mazmunan xalq og`zaki ijodi namunalariga, shaklan esa ruboiy va to`rtliklarga, mumtoz adabiyotimiz janrlariga borib taqaladi. Biroq ishonch bilan qayirma – individual ijodiy eksperiment sifatida maydonga kelgan badiiy shakl deb aytish o`rinli deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamiraliyev Q. O`zbek adabiyotida shakliy izlanishlar va individuallik. International scientific methodological journal Foreign Languages in Uzbekistan. 2022, 5-son.
2. Йўлдош Қ. Эй дўст ёхуд Азимнома. Тошкент, “Академнашр” 2018, Б.438
3. Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. Тошкент, “Академнашр” 2018, Б.186
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. Б.212.
5. Oripov A. “Qayirma – mustaqil janr”. “Tafakkur” jurnali, 2003-yil.
6. Umurov H. Adabiyot qoidalari. Toshkent, “O`qituvchi” 2003.